



№4/2026

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ADPI
Ilmiy xabarnomasi

BO'LAJAK SOTSIOLGLARDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHDA INTERFAOL PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARNING SAMARADORLIGI

Yulbarsova Xurshida Abdullajonovna

Farg'ona davlat universiteti

Annotatsiya.

Mazkur maqolada bo'lajak sotsiologlarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda interfaol pedagogik texnologiyalarning samaradorligi tahlil qilinadi. Zamonaviy ta'lim sharoitida sotsiolog mutaxassislar uchun tanqidiy fikrlash, analitik yondashuv va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalari muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotda interfaol metodlar, xususan, muammoli ta'lim, case-study, debat va raqamli platformalardan foydalanish orqali talabalar fikrlash faoliyatini rivojlantirish mexanizmlari o'rganilgan. Kvazi-eksperimental yondashuv asosida olib borilgan tadqiqot natijalari interfaol pedagogik texnologiyalarni qo'llash talabalarning tanqidiy fikrlash darajasini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatdi. Shuningdek, mazkur metodlar talabalarning ijtimoiy jarayonlarni tahlil qilish, dalillarga asoslangan xulosa chiqarish va reflektiv fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi aniqlandi. Tadqiqot natijalari oliy ta'lim tizimida sotsiolog mutaxassislarni tayyorlash jarayonini takomillashtirish uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar:

tanqidiy fikrlash, bo'lajak sotsiolog, interfaol ta'lim, pedagogik texnologiyalar, aqliy hujum, keys stady, FSMU texnologiyasi, analitik fikrlash, oliy ta'lim, ta'lim samaradorligi.

Аннотация.

В данной статье анализируется эффективность интерактивных педагогических технологий в развитии критического мышления у будущих социологов. В условиях современного образования навыки критического мышления, аналитического подхода и самостоятельного принятия решений приобретают особую значимость для подготовки специалистов-социологов. В исследовании рассматриваются механизмы развития мыслительной активности студентов посредством применения интерактивных методов, таких как проблемное обучение, кейс-стади, дебаты и цифровые образовательные платформы. Результаты квази-экспериментального исследования показали, что использование интерактивных педагогических технологий существенно повышает уровень критического мышления студентов. Также установлено, что данные методы способствуют развитию навыков анализа социальных процессов, аргументированного мышления и рефлексии. Полученные результаты имеют важное научно-практическое значение для совершенствования процесса подготовки будущих социологов в системе высшего образования.

Ключевые слова:

критическое мышление, будущий социолог, интерактивное обучение, педагогические технологии, мозговой штурм, кейс-стади, технология FSMU, аналитическое мышление, высшее образование, эффективность образования.

Abstract.

This article examines the effectiveness of interactive pedagogical technologies in developing critical thinking skills among future sociologists. In the context of modern education, critical thinking, analytical reasoning, and independent decision-making are essential competencies for sociology students. The study explores the mechanisms for enhancing students' cognitive engagement through the use of interactive methods, including problem-based learning, case studies, debates, and digital learning platforms. The results of the quasi-experimental study indicate that the application of interactive pedagogical technologies significantly improves students' critical thinking levels. Furthermore, these methods contribute to the development of skills in analyzing social processes, constructing evidence-based arguments, and reflective thinking. The findings have important theoretical and practical implications for improving the training of future sociologists in higher education institutions.

Keywords:

critical thinking, future sociologist, interactive learning, pedagogical technologies, brainstorming, case study, FSMU technology, analytical thinking, higher education, educational effectiveness.

KIRISH. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tanqidiy fikrlash XXI asr ko'nikmalarining muhim elementi hisoblanadi. Axborot oqimi shiddatli tus olgan bugungi kunda ma'lumotlarni

saralash, tahlil qilish va xolis xulosa chiqarish ko'nikmasi tanqidiy fikrlash – hayotiy zaruriyatga aylandi. An'anaviy "tayyor bilimni uzatish" modeli o'z ahamiyatini yo'qotmoqda; endilikda ta'lim oluvchi bilimlarni mustaqil izlashi va baholashi talab etiladi. Zamonaviy ta'lim tizimida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish asosiy kompetensiyalardan biri sifatida qaralmoqda. Bu ko'nikma bo'lajak sotsiologlarning axborotni tahlil qilish, baholash va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantiradi.

Mamlakatimizda bu borada meyoriy-huquqiy asoslar yaratilgan bo'lib, xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-sonli Qarorida ham Oliy ta'lim tizimini modernizatsiyalash, kelgusida yanada takomillashtirish va kompleks rivojlantirish bo'yicha eng muhim vazifalar qatorida:

- "har-bir oliy ta'lim muassasasi jahonning yetakchi ilmiy ta'lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalarini o'rnatishi;

- o'uv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv uslubiy materiallarni keng joriy qilish;

- o'quv-pedagogik faoliyatga master-klasslar o'tkazishga, ta'lim jarayoniga xorijiy hamkor ta'lim muassasalarida yuqori malakali o'qituvchilar va olimlarni faol jalb qilish" [1] orqali talabalarni ijtimoiy-kasbiy faoliyatga tayyorlash tizimini takomillashtirish, mamlakatimizning barcha oliy ta'lim muassasalari faoliyatida ilg'or xorijiy tajribalarda keng foydalanishni taqozo qiladi.

An'anaviy ta'lim usullari ko'pincha passiv bilim olishga asoslangan bo'lsa, interfaol pedagogik texnologiyalar bo'lajak sotsiologlarni faol o'quv jarayoniga jalb etadi. Shu sababli, mazkur tadqiqotning maqsadi – interfaol metodlarning tanqidiy fikrlashni rivojlantirishdagi samaradorligini aniqlashdir.

Hozirgi axborot asrida asosiy muammo ma'lumot yetishmasligi emas, balki uning haddan tashqari ko'pligidir. Bo'lajak sotsiologlar har qanday ma'lumotni, ayniqsa raqamli manbalardan olingan axborotni "haqiqat" sifatida qabul qilishga moyil. Buning oqibatida yolg'on habarlar (fake news), manipulyatsiya va bir yoqlama qarashlarga nisbatan himoyasizlik yuzaga keladi. Tanqidiy fikrlash rivojlanmagan joyda, inson axborotning obyektivligini tekshirish ko'nikmasiga ega bo'lmaydi. Shuningdek an'anaviy ta'lim tizimi uzoq vaqt davomida "reproduktiv" xarakterga ega bo'lib keldi: o'qituvchi ma'lumot beradi, bo'lajak sotsiolog uni yodlaydi va qaytarib beradi.

Bunday muammo bo'lajak sotsiologni faqat "iste'molchi" roliga qo'yadi. U olingan bilimni savol ostiga olmaydi, uning amaliy ahamiyatini tahlil qilmaydi yoki muqobil yechimlarni izlamaydi. Oqibatda bo'lajak sotsiologlarda mantiqiy xatolarini topish, argumentlarni tahlil qilish va o'z mustaqil pozitsiyasini shakllantirish ko'nikmalari zaifligicha qolaveradi. Ammo hozirgi zamonaviy ish beruvchilar uchun faqat "diplomli mutaxassis" emas, balki muammoli vaziyatda tez va to'g'ri qaror qabul qila oladigan kadr muhim. Ta'lim tizimi ma'lumot berishdan – fikrlashni o'rgatishga o'tishi zarur. Interfaol pedagogik texnologiyalar aynan shu o'tish

davridagi asosiy ko'prik vazifasini o'taydi, chunki ular bo'lajak sotsiologni passiv tinglovchidan faol tahlilchiga aylantiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. So'nggi tadqiqotlar interfaol ta'lim muhitining tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda muhim rol o'ynashini ko'rsatadi. Xususan, "raqamli va interfaol vositalar orqali tashkil etilgan o'quv jarayonlari bo'lajak sotsiologlar fikrlash faoliyatini sezilarli darajada oshiradi"[7]. Ilmiy izlanishlarda quyidagi asosiy jihatlar ajratib ko'rsatiladi:

1. Interfaol muhit bo'lajak sotsiologlarning muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilishini rivojlantiradi;

2. Hamkorlikda o'qish (collaborative learning) tanqidiy fikrlashni kuchaytiradi;

3. O'qituvchining metodik yondashuvi muhim omil hisoblanadi.

Shuningdek, pedagogik texnologiyalar kreativ va tanqidiy fikrlashni birgalikda rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bo'lajak sotsiologlarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogika va sotsiologiya fanlarining integratsiyasi natijasi bo'lib, ushbu muammo ko'plab xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Ayniqsa, interfaol pedagogik texnologiyalarning o'rni va ahamiyati alohida e'tiborga loyiqdir.

Tanqidiy fikrlash tushunchasi ilk bor John Dewey [5] tomonidan asoslab berilgan bo'lib, u tanqidiy fikrlashni muammoli vaziyatlarda ongli va mantiqiy fikr yuritish jarayoni sifatida talqin etadi. Keyinchalik Robert H. Ennis [3] tanqidiy fikrlashni dalillarga asoslangan, refleksiv va qaror qabul qilishga yo'naltirilgan tafakkur shakli sifatida izohlaydi.

Zamonaviy tadqiqotlarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda interfaol metodlarning ahamiyati keng yoritilgan. Jumladan, Bonnie S. Fisher va Ian Wilkinson o'z ishlarida talabalarining faol ishtirokiga asoslangan o'qitish usullari ularning analitik va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini sezilarli darajada oshirishini ta'kidlaydi.

Interfaol pedagogik texnologiyalar nazariy asoslari Lev Vygotsky [2] ning ijtimoiy-konstruktivizm nazariyasiga borib taqaladi. Unga ko'ra, bilim ijtimoiy muloqot jarayonida shakllanadi va o'quvchilar o'zaro hamkorlik orqali murakkab bilimlarni egallaydilar. Shu nuqtai nazardan, "debat", "keys-stadi", "aqliy hujum" kabi metodlar talabalarining mustaqil fikrlashini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi.

Bundan tashqari, Jean Piage [6] ning kognitiv rivojlanish nazariyasiga ko'ra, shaxsning fikrlash qobiliyati faol o'quv faoliyati orqali bosqichma-bosqich shakllanadi. Bu esa interfaol metodlarning o'quv jarayonidagi ahamiyatini yanada mustahkamlaydi.

So'nggi yillarda olib borilgan empirik tadqiqotlar ham interfaol pedagogik texnologiyalarning samaradorligini tasdiqlaydi. Masalan, David Kolb [4] tomonidan ishlab chiqilgan tajribaviy o'qitish modeli talabalarining bilimni amaliyot bilan bog'lash orqali chuqur o'zlashtirishini ko'rsatadi. Bu model asosida tashkil etilgan o'quv mashg'ulotlari tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Mamlakatimiz tadqiqotchilari tomonidan ham ushbu muammo keng o'rganilmoqda. O'zbekistonlik olimlar interfaol metodlar orqali talabalarining ijtimoiy kompetensiyasini rivojlantirish, mustaqil fikrlash va kasbiy tayyorgarligini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratganlar. Ularning fikricha, an'anaviy ta'limdan interfaol ta'limga o'tish zamonaviy mutaxassis tayyorlashning muhim shartidir.

Shuningdek, sotsiologik ta'lim jarayonida fokus-guruh, muammoli vaziyat tahlili va loyiha asosida o'qitish metodlari talabalarni real ijtimoiy muammolarni tahlil qilishga jalb etadi. Bu esa ularning nafaqat nazariy bilimlarini, balki tanqidiy va analitik fikrlash qobiliyatlarini ham rivojlantiradi.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda interfaol pedagogik texnologiyalar muhim nazariy va amaliy asosga ega. Xorijiy va mahalliy tadqiqotlar natijalari o'zaro uyg'un bo'lib, talabalarning faol ishtirokiga asoslangan o'qitish usullari yuqori samaradorlikka ega ekanligini tasdiqlaydi. Shu bois, bo'lajak sotsiologlarni tayyorlash jarayonida interfaol metodlardan tizimli foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqotda bo'lajak sotsiologlarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda interfaol pedagogik texnologiyalarning samaradorligini aniqlash maqsadida **kvazi-eksperimental yondashuv** qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida Sotsiologiya ta'lim yo'nalishi 2-bosqich, 24-82 va 24-83-guruhlarda nazorat va tajriba guruhlari shakllantirilib, ularda o'quv jarayoni turlicha tashkil etildi.

Tajriba guruhida ta'lim jarayoniga **"Aqliy hujum", "Debat", "Keys-stadi", "FSMU texnologiyasi"** kabi interfaol pedagogik texnologiyalar tizimli ravishda qo'llanildi. Nazorat guruhida esa an'anaviy o'qitish metodlari asosida mashg'ulotlar olib borildi.

Tadqiqotning boshlang'ich bosqichida har ikki guruhda talabalarning tanqidiy fikrlash darajasi diagnostika qilinib, ularning ko'rsatkichlari deyarli bir xil ekanligi aniqlandi. Baholash mezonlari sifatida quyidagilar belgilandi:

- muammoni tahlil qilish qobiliyati;
- dalillarga asoslangan fikr yuritish;
- mustaqil xulosa chiqarish;
- alternativ yechimlarni taklif eta olish.

Tajriba yakunida olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, interfaol metodlar qo'llanilgan guruhda tanqidiy fikrlash ko'rsatkichlari sezilarli darajada oshgan. Xususan, tajriba guruhida:

- muammoni chuqur tahlil qilish ko'nikmasi rivojlanish darajasi yuqori bo'ldi;
- talabalar fikrini asoslashda dalillardan samarali foydalana boshladi;
- mustaqil va kreativ yondashuv kuchaydi;
- ijtimoiy muammolarni ko'p variantli yechimlar orqali baholash qobiliyati shakllandi.

Nazorat guruhida esa o'sish dinamikasi mavjud bo'lsa-da, u sezilarli darajada past bo'lib qoldi. Bu esa interfaol pedagogik texnologiyalarning an'anaviy metodlarga nisbatan ustunligini ko'rsatadi.

Shuningdek, Aqliy hujum muhokamalari natijalari talabalarda ijtimoiy muammolarga nisbatan tanqidiy yondashuv, kommunikativ kompetensiya va jamoaviy fikrlash ko'nikmalarining shakllanganligini ko'rsatdi. Debat texnologiyasi esa talabalarning o'z pozitsiyasini himoya qilish va qarama-qarshi fikrlarni tahlil qilish qobiliyatini sezilarli darajada rivojlantirdi.

Interfaol texnologiyalar ta'lim oluvchini jarayonning faqat subyektiga aylantiradi. Sotsiologik va pedagogik kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, interfaol muhitda:

1. **Kognitiv faollik ortadi:** Bo'lajak sotsiolog ma'lumotni shunchaki eslab qolmaydi, balki uni qayta ishlaydi.
2. **Refleksiya shakllanadi:** O'z fikrlari va boshqalarning argumentlarini tanqidiy qayta ko'rib chiqish imkoniyati paydo bo'ladi.

3. **Kommunikativ ko'nikmalar rivojlanadi:** Konstruktiv bahslashish va dalillar keltirish o'rganiladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Tanqidiy fikrlashni shakllantirishda shunchaki ma'lumot berish yetarli emas – bo'lajak sotsiolog o'sha ma'lumotni tushunishi, tahlil qilishi va qayta qurishi kerak. Quyidagi uchta metod aynan shu jarayonni turli bosqichlarda fikr yig'ish, tahlil va isbotlash jarayonini amalga oshirishga yordam beradi.

Aqliy hujum metodi. Bu metod muammoni hal qilishning dastlabki bosqichida – g'oyalar yetishmagan yoki stereotipik fikrlashdan qochish kerak bo'lgan vaziyatda qo'llaniladi. Uning asosiy qoidasi miqdor sifatdan ustun va tanqid vaqtincha taqiqlanadi. Har qanday fikr eshitaladi, qabul qilinadi.

Qo'llash tartibi:

1. Muammoni e'lon qilish: Aniq savol qo'yiladi (masalan: "Qishloq ayollari tadbirkorligiga nima to'sqinlik qilmoqda?").

2. G'oyalar generatori: Ishtirokchilar 5-10 daqiqa davomida xayoliga kelgan barcha (hatto eng aqldan ozgan) fikrlarni aytishadi.

3. Saralash va tahlil: Barcha g'oyalar yozib bo'lingach, ular guruhlanadi va eng realistiklari tanlab olinadi.

Keys stady metodi. Bu metod nazariyani amaliyot bilan bog'laydi. Bo'lajak sotsiologga tayyor yechim emas, balki real hayotiy muammo (keys) beriladi va undan chiqish yo'li so'raladi.

Qo'llash tartibi:

1. Keys taqdim etiladi: Ishtirokchilarga real ssenariy (matn, video yoki ma'lumotlar to'plami) beriladi.

2. Muammoni identifikatsiya qilish: Bo'lajak sotsiologlar keysdagi asosiy ziddiyatni aniqlashlari kerak.

3. Muqobil yechimlar qidiruvi: Har bir guruh o'z yechimini taklif qiladi va uning ijobiy/salbiy tomonlarini tahlil qiladi.

4. Xulosa: Eng maqbul yechim tanlanadi va o'qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

FSMU texnologiyasi. Bu metod o'z fikrini mantiqiy, dalillar bilan va izchil bayon etishni o'rgatadi. Akademik bahs-munozaralar uchun eng samarali vositadir.

Qo'llash tartibi: FSMU quyidagi to'rt bosqichdan iborat:

Bosqich	Mazmuni	Qo'llaniladigan iboralar
F – Fikr	O'z fikringizni bayon eting	"Mening fikrimcha...", "Men shunday hisoblayman..."
S – Sabab	Fikringizga sabab ko'rsating	"Chunki...", "Buning sababi shundaki..."
M – Misol	Sababni isbotlovchi dalil keltiring	"Buni quyidagi misol bilan isbotlash mumkin...", "Masalan..."
U – Umumlashtirish	Fikringizni yakunlang	"Shunday qilib...", "Xulosa qilib aytganda..."

Seminar yoki amaliy mashg'ulotlar davomida ushbu metodlarni ketma-ket qo'llash tavsiya etiladi. Masalan avval Aqliy hujum metodi bilan fikrlarni uyg'otish, keyin Keys-stadi metodi bilan muammoni chuqur tahlil qilish va yakunda FSMU texnologiyasi orqali har bir bo'lajak sotsiologning shaxsiy xulosasini shakllantirish mumkin.

Shu sababli interfaol metodlarni qo'llash natijasida bo'lajak sotsiologlarda tanqidiy fikrlashning quyidagi komponentlari o'sishi kuzatiladi:

1. Interpretatsiya: Matn yoki muammoning mohiyatini tushunish.
2. Analiz: Elementlar orasidagi mantiqiy aloqalarni aniqlash.
3. Infirensiya (Xulosa): Dalillar asosida to'g'ri qaror qabul qilish.

“Interfaol metodlarning samaradorligi shunchaki mashg'ulotning qiziqarli o'tishi bilan emas, balki bo'lajak sotsiologning kognitiv (bilish) va ijtimoiy ko'nikmalaridagi aniq sifat o'zgarishlari bilan o'lchanadi”[8]. Sotsiologik va pedagogik tadqiqotlar bu samaradorlikni to'rtta asosiy ko'rsatkichga ajratadi.

Bilimlarni o'zlashtirish va saqlash darajasi. An'anaviy ma'ruza usulida talaba ma'lumotning atigi 5-10% qismini eslab qolsa, interfaol metodlarda bu ko'rsatkich 75-90% gacha ko'tariladi. Sababi talaba ma'lumotni shunchaki tinglamaydi, balki uni amalda qo'llaydi. Bu esa olingan bilimlarning uzoq muddatli xotirada saqlanishi va ularni yangi, notanish vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatini shakllantiradi.

Kognitiv tahlil va sintez ko'nikmasi. Interfaol ma'ruzalarda talaba Bloom taksonomiyasining yuqori bosqichlariga (Tahlil, Sintez, Baholash) ko'tariladi. Bu jarayonda talaba muammoni ko'ra olish orqali berilgan ma'lumotlar ichidan asosiy ziddiyatni ajratib oladi. O'z fikrini mantiqiy isbotlash va qarshi fikrlarni xolis tahlil qilish (FSMU metodi orqali) ko'nikmasiga ega bo'ladi. Bu esa talabaning “Nima uchun?” va “Qanday qilib?” savollariga javob berishda mantiqiy xatolarining kamayishiga olib keladi.

Ijtimoiy va kommunikativ kompetensiya (Soft Skills). Tanqidiy fikrlash faqat individual jarayon emas, u jamoaviy muhitda charxlanadi. Bo'lajak sotsiolog guruhda ishlash orqali “kollektiv intellect” fenomenini his qiladi, bu hamkorlik jarayonini kuchaytiradi. Shuningdek o'z qarashlariga zid bo'lgan fikrlarni eshitish va ularni ilmiy tahlil qilish madaniyati shakllanadi. Bu esa jamoaviy bahslarda konstruktiv muloqot olib borish va umumiy to'xtamga kelish tezligini oshiradi.

Motivatsiya va mashg'ulotga jalb qilinganlik. Sotsiologik so'rovnomalar shuni ko'rsatadiki, interfaol metodlar qo'llanilgan mashg'ulotlarda talabalarning ma'ruzani qoldirishi va mashg'ulotdagi “passivligi” keskin kamayadi. Yani o'yin yoki bahs elementlari talabada “muvaffaqiyat hissi”ni uyg'otadi. Natijada talabalarning mashg'ulot davomida beradigan savollari soni va mashg'ulotdan keyingi mustaqil izlanishga bo'lgan qiziqishi ortadi.

Kvazi-eksperimental yondashuvning afzalligi shundaki, u real ta'lim sharoitida o'quv jarayoniga aralashgan holda pedagogik ta'sirning natijadorligini aniqlash imkonini berdi. Olingan natijalar statistik jihatdan ham ishonchli bo'lib, interfaol metodlarning samaradorligini tasdiqladi.

XULOSA. Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bo'lajak sotsiologlarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimining muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot davomida qo'llanilgan kvazi-eksperimental yondashuv asosida interfaol pedagogik texnologiyalarning samaradorligi amaliy jihatdan asoslab berildi.

Olingan natijalar tahlili shuni tasdiqlaydiki, interfaol metodlar – xususan, debat, keys-stadi, aqliy hujum kabi texnologiyalar – talabalarning analitik fikrlashi, muammoni chuqur tahlil qilish qobiliyati, dalillarga asoslangan xulosa chiqarish hamda mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini sezilarli darajada rivojlantiradi. Bunday yondashuv o'quv jarayonida talabalarning faolligini oshirib, ularni bilimlarni passiv o'zlashtiruvchidan faol subyektga aylantiradi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari interfaol pedagogik texnologiyalarni tizimli va maqsadli qo'llash orqali bo'lajak sotsiologlarning kasbiy kompetensiyasi, xususan, tanqidiy va reflektiv fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish mumkinligini ko'rsatdi. Nazorat va tajriba guruhlari natijalari o'rtasidagi farq esa ushbu metodlarning an'anaviy o'qitish usullariga nisbatan yuqori samaradorlikka ega ekanligini isbotladi.

Xulosa qilib aytganda, interfaol pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni bo'lajak sotsiologlarning zamonaviy kasbiy talablariga mos, mustaqil fikrlovchi, ijtimoiy muammolarni tahlil qila oladigan va asosli qarorlar qabul qila oladigan mutaxassis sifatida shakllanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shu bois, oliy ta'lim muassasalarida interfaol o'qitish metodlarini keng joriy etish va ularni metodik jihatdan takomillashtirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПК-2909-сон Қарори. // “Халқ сўзи” газетаси, 2017 йил 21 апрел, 79 (6773)-сон.
2. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in society: The development of higher psychological processes*. Harvard University Press.
3. Ennis, R. H. (2011). *The nature of critical thinking: An outline of critical thinking dispositions and abilities*. University of Illinois.
4. Kolb, D. A. (1984). *Experiential learning: Experience as the source of learning and development*. Prentice Hall.
5. Peter Gibbon. HUMANITIES, Spring 2019, Volume 40, Number 2
6. Piaget, J. (1972). *The psychology of the child*. Basic Books.
7. Сонг, Х., Цай, Л. Интерактивная учебная среда как источник развития навыков критического мышления у студентов колледжа. *ВМС Мед Educ* 24, 270 (2024). <https://doi.org/10.1186/s12909-024-05247-y>
8. Yulbarsova X., (2024). Loyihaviy ta'lim - bo'lajak sotsiologlarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishning amaliy-texnologik tizimi sifatida. *Farg'ona Davlat Universiteti*, 30(2), 3. Retrieved from <https://journal.fdu.uz/index.php/sjfsu/article/view/3863>.

MUNDARIJA

PEDAGOGIKA

Yulbarsova Xurshida Abdullajonovna		
<i>Bo'lajak sotsiologlarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda interfaol pedagogik texnologiyalarning samaradorligi</i>	4	10
Axunov Umidbek Ruzibayevich		
<i>Bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda kinestetik rivojlanish darajasini baholash mezonlari</i>	11	13
Saidg'aniyev Saidaxmad Oybek o'g'li		
<i>Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisining nazariy tayyorgarligi mazmuni va ahamiyati</i>	14	17
Каримова Наргиза Яхёевна		
<i>Роль идеологического иммунитета в процессе социально-психологической адаптации молодежи</i>	18	23
Anvarbekova Xilola Numanovna		
<i>Raqamli ta'lim texnologiyalari asosida bo'lajak informatika o'qituvchilarida media kompetentligini rivojlantirish</i>	24	28
Temirova Gulmira Alibekovna		
<i>Kompetentsiyaviy yondashuv ta'lim jarayonini takomillashtirishning innovatsion yo'li sifatida</i>	29	35
Xamitjonov Muxammadbobir Ulug'bek o'g'li		
<i>Dzyudo sportida vazn boshqaruvini takomillashtirishning pedagogik va fiziologik asoslari</i>	36	40
Qushmonov Adaxam Akramjonovich		
<i>Xalq o'yinlari asosida talabalarining jismoniy faollik ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari</i>	41	44
Umarov Azizbek Vaxobovich		
<i>Xorijiy ta'lim tajribalarida mediakompetentlikni rivojlantirish modellari va ularning pedagogik ahamiyati</i>	45	50
Abduraxmonova Dilobar Shuhratbekovna		
<i>Tarbiya fani o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida individual yondashuv asosida baholash va rag'batlantirish kompetensiyalarini shakllantirish</i>	51	53
Qushmonov Adaxam Akramjonovich		
<i>Pedagogika yo'nalishi talabalarining jismoniy faollik ko'nikmalarini xalq o'yinlari asosida rivojlantirish metodikasining samaradorligini tajriba-sinovda asoslash</i>	54	57
Rahmonov Mirzoxid Shavkatovich		
<i>Sun'iy intellekt va ta'lim: o'zbekiston tajribasi</i>	58	64
Raximov Xasanboy Kamoliddin o'g'li		
<i>Talaba - yoshlarda sog'lom turmush tarzini shakllantirishning mentorlik modeli</i>	65	70
Xabibullayeva Xilola		
<i>Maktabgacha yoshdagi bolalarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini rivojlantirish yo'llari</i>	71	73

